




**SURXONDARYO
VILOYATINIG SANOAT
ISHLAB CHIQARISHI
2023- yil yanvar-oktabr
(dastlabki ma'lumot)**

Surxondaryo viloyatining sanoat ishlab chiqarishi


(2023- yil yanvar-oktabr oylarida)

Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2023- yilning yanvar-oktabr oylarida viloyat korxonalari tomonidan 6566,4 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2022- yilning yanvar-oktabr oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajm indeksi* 105,0 % ni tashkil etdi.

Sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib, uning jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi 88,2 % ni tashkil etdi.




Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarishi, FHI* % da




*Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.

Jami sanoat ishlab chiqarishi fizik hajmi o'sishining asosiy omili bo'lib, suv bilan ta'minlash, kanalizasiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizasiya qilish – 17,8 % ga o'sishi kuzatildi.

Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoati




Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalarini tomonidan 2023- yilning yanvar-oktabr oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 152,4 mlrd. so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 2,3 % ini tashkil etdi.




Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

O'tgan yilning mos davriga nisbatan, % da



Sanoat mahsulotlari	2022- yil yanvar-oktabr	2023- yil yanvar-oktabr	Farqi +/-
Ko'mir, ming t.	225,9	279,2	53,3
Neft, ming t.	71,1	66,7	-4,4




Sanoat mahsulotlari	2022- yil yanvar-oktabr	2023- yil yanvar-oktabr	Farqi +/-
Qattiq tuz, ming t.	18,1	19,7	1,6
Chaqiq tosh, ming t.	52,7	12,4	-40,3

Ishlab chiqaradigan sanoat

mlrd. so‘m

yanvar-oktabr

FHI,% da



2023- yilning yanvar-oktabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 5790,3 mlrd. so‘mni yoki jami sanoat mahsulotlarining 88,2 % ini tashkil etdi.

2022- yil
yanvar-oktabr


88,0 %

2023- yil
yanvar-oktabr

88,2%

O‘tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 0,3 % ni (2022- yilning yanvar-oktabr oylarida – 0,5 %), o‘rta-yuqori texnologiyali – 0,4 % (0,4 %), o‘rta-quyi texnologiyali – 27,7% (22,6 %) va quyi texnologiyalisi – 58,5 % (62,2 %)ni tashkil etdi.


■ 2022- yil ■ 2023- yil




Jami ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida to'qimachilik, kiyim, teri mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 43,7 % (2022- yilning yanvar-oktabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 114,0 %), oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 15,0 % (2022- yilning yanvar-oktabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 82,8 %), boshqa nometall mineral mahsulotlarni ishlab chiqarishning ulushi 12,1 % (2022- yilning yanvar-oktabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 132,3 %), mashina va asbob-uskunalar ishlab chiqarish, ta'mirlash va o'rnatish, avtotransport vositalari, yarim tirkamalar va boshqa tayyor buyumlarni ishlab chiqarish sohasining ulushi – 6,2 % (2022- yilning yanvar-oktabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 112,1 %), koks va neftni qayta ishlash mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ulushi – 4,9 % (2022- yilning yanvar-oktabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 56,1 %), kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarishning ulushi – 1,6 % (2022- yilning yanvar-oktabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 164,8 %)ni tashkil etdi.

Ishlab chiqaradigan sanoatda ayrim turdagi mahsulotlarning o'sish sur'ati

O'tgan yilning mos davriga nisbatan, % da






2023- yilning yanvar-oktabr oylari davomida ishlab chiqaradigan sanoatda 15,7 ming tonna paxta tolasi (2022- yilning yanvar-oktabr oyiga nisbatan 30,9 % ga ko'p), 5,2 ming tonna boshqa guruhlariga kiritilmagan suyuq neft yoqilg'isi (mazut) (63,0 % ga kam), 2,6 ming tonna lint (54,3 % ga ko'p), 43,1 ming tonna neft bitumi (17,3 % ga kam) ishlab chiqarilib, kam o'sish sur'atlari kuzatildi.

Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish


Sanoat mahsulotlari	2022- yil yanvar-oktabr	2023- yil yanvar-oktabr	Farqi +/-
Paxta tolasi, ming t.	12,0	15,7	3,7
Paxta tiviti (lint), ming t.	1,7	2,6	0,9
Neft bitumi, ming t.	82,7	43,1	-39,6
Yumshoq bug'doy va spelta uni, ming t.	89,2	28,0	-61,2
Saryog', t.	1,0	0,2	-0,8
O'simlik yog'i (tozalangan), ming t.	1,9	1,8	-0,1

Metallurgiya sanoati

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2022- yilning yanvar-oktabr oylarida metallurgiya sanoati ulushi 0,8 % ni tashkil etib, uning fizik hajm indeksi 50,0 bo'lsa, 2023- yilning yanvar-oktabr oylari yakunlariga ko'ra, metallurgiya sanoatining ulushi 0,9 % ni, fizik hajm indeksi esa, 103,9 % ni tashkil etib va ishlab chiqarish hajmi 56,0 mlrd. so'mni tashkil etdi.




Boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish



Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2022- yilning yanvar-oktabr oylarida boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ulushi 8,4 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 141,4 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2023- yilning yanvar-oktabr oylari yakuniga ko'ra, boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 12,1 % ni tashkil etdi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi esa 132,3 % ga ko'paygan va ishlab chiqarish hajmi 794,2 mlrd. so'mni tashkil etdi.


Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2022- yilning yanvar-oktabr oylarida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 20,3 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 102,5 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2023- yilning yanvar-oktabr oylari yakuniga ko'ra, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 14,4 % ni tashkil etdi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi esa 81,2 % ga kamaygan va ishlab chiqarish hajmi 946,6 mlrd. so'mni tashkil etdi.




Ichimliklar ishlab chiqarish sanoati

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2022- yilning yanvar-oktabr oylarida ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 0,5 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 74,9 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2023- yilning yanvar-oktabr - oylari yakuniga ko'ra, ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 0,6 % ni tashkil etdi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi esa 135,1 % ni va ishlab chiqarish hajmi 39,9 mlrd. so'mni tashkil etdi.



To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati




Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2022- yilning yanvar-oktabr oylarida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 36,5 % ni tashkil etgan bo'lsa, uning fizik hajm indeksi 104,5 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2023- yilning yanvar-oktabr oylarida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 39,5 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi 114,3 % ga ko'paygan bo'lsa, ishlab chiqarish hajmi 2596,8 mlrd. so'mni tashkil etdi.

Kiyim ishlab chiqarish sanoati

2022- yilning yanvar-oktabr oylari yakuniga ko'ra, kiyim ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 3,7 % ni, fizik hajm indeksi esa 69,8 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2023- yilning yanvar-oktabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 4,1 %, fizik hajm indeksi 112,1 % ni, ishlab chiqarish hajmi esa 269,6 mlrd. so'mni tashkil etdi.




Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish

2022- yilning yanvar-oktabr oylari yakuniga ko'ra kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,4 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 110,0 % ni tashkil etgan. Shuningdek, 2023- yilning yanvar-oktabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,3 % ni, fizik hajm indeksi 84,7 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 20,6 mlrd. so'mni tashkil etdi.



Koks va neftni qayta ishlash mahsulotlari ishlab chiqarish




2022- yilning yanvar-oktabr oylari yakuniga ko'ra, koks va neftni qayta ishlash mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 7,5 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 96,1 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2023- yilning yanvar-oktabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 4,9 % ni, fizik hajm indeksi 56,1 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 322,8 mlrd. so'mni tashkil etdi.

Rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish

2022- yilning yanvar-oktabr oylari yakuniga ko'ra, rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,6 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 134,4 % ni tashkil etgan.


Shuningdek, 2023- yilning yanvar-oktabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 1,3 % ni, fizik hajm indeksi 214,8 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 85,8 mlrd. so'mni tashkil etdi.



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 487,4 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 7,4 % ini) tashkil etdi.

2023- yilning yanvar-oktabr oylarida, sanoatning mazkur tarmog'ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug' bilan ta'minlash tizimlari va havoni konditsiyalashning o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 106,1 % ga ko'payganligi kuzatildi.



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2022- yil yanvar-oktabr	2023- yil yanvar-oktabr	Farqi +/-
Elektroenergiya, mln.kVt.s	219,9	395,0	175,1
Issiqlik energiyasi, ming gkal	29,1	19,5	-9,6

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 136,4 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 2,1 % ini) tashkil etdi.



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2022- yil yanvar-oktabr	2023- yil yanvar-oktabr	Farqi +/-
Oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar, mlrd. so'm	3,9	6,6	2,7
Boshqa axlatxonalarda xavfsiz chiqindilarni yo'qotish bo'yicha xizmatlar, mlrd. so'm	24,7	28,4	3,7

O'tgan yilning mos davriga nisbatan suvga ishlov berish va suv quvurlari bo'yicha taqsimlash bo'yicha xizmatlar 49,6 mlrd. so'm, oqova suvlarini yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar 6,6 mlrd. so'm shuningdek, 28,4 mlrd. so'm boshqa axlatxonalarda xavfsiz chiqindilarni yo'qotish bo'yicha xizmatlar ishlab chiqarildi.

Iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish

Tayyor mahsulot turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 1925,2 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2022- yilning mos davriga nisbatan 101,5 % ni, uning jami sanoatdagi ulushi 29,3 % ni tashkil etdi.

Oziq-ovqat mahsulotlari

2022- yil
yanvar-oktabr

50,3 %

2023- yil
yanvar-oktabr

36,3 %

Nooziq-ovqat mahsulotlar

2022- yil
yanvar-oktabr

49,7 %

2023- yil
yanvar-oktabr

63,7 %

Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish tarkibida vino va aroq mahsulotlari va pivo ulushi 0,5 % (2022- yil yanvar-oktabr oylarida 0,7 %)ni tashkil etdi. Hududlar kesimida iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining Viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Jarqo'rg'on tumani 18,7 % , Denov tumani 14,3 % ni, 13,0 % Sho'rchi tumaniga to'g'ri kelmoqda.

Shuningdek, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining o'sish sur'atida Viloyat o'sish sur'ati (101,5 %) darajasidan yuqori ko'rsatkich Qumqo'rg'on (210,6 %) , Bandixon (169,8 %) va Angor (120,5 %) tumanlarida qayd etildi.